Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, tarix ta'limi, tarix o'qitish metodikasi, raqamli ta'lim, tarixiy tafakkur, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogika, ChatGPT.

Abstract: This article analyzes the integration of artificial intelligence technologies into the system of historical science, their didactic possibilities, as well as the methodology of their application in the process of teaching history. Modern artificial intelligence tools are examined from the perspective of their significance in acquiring historical knowledge, developing historical thinking, organizing independent learning, and improving the quality of education. Furthermore, the advantages, existing challenges, and prospects of using artificial intelligence in history education are highlighted from a scientific and pedagogical perspective.

Key words: artificial intelligence, history education, methodology of teaching history, digital education, historical thinking, competency-based approach, innovative pedagogy, ChatGPT.

Аннотация: В данной статье проанализированы процесс внедрения технологий искусственного интеллекта в систему исторической науки, их дидактические возможности, а также методика применения в процессе преподавания истории. Современные средства искусственного интеллекта рассмотрены с точки зрения их значения для усвоения исторических знаний, развития исторического мышления, организации самостоятельного обучения и повышения качества образования. Кроме того, с научно-педагогической точки зрения освещены преимущества использования искусственного интеллекта в историческом образовании, существующие проблемы и перспективы.

Ключевые слова: искусственный интеллект, историческое образование, методика преподавания истории, цифровое образование, историческое мышление, компетентностный подход, инновационная педагогика, ChatGPT.

KIRISH

Tarix fani insoniyat taraqqiyotining o'tgan bosqichlarini tadqiq etish bilan bir qatorda, yosh avlodni ma'naviy yetuklik, axloqiy qadriyatlar va vatanparvarlik g'oyalari asosida tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli tarix fanini o'qitish jarayonida metodlarni samarali va maqsadga muvofiq tanlash o'quvchilarda tarixiy dunyoqarash, mustaqil mushohada yuritish qobiliyati hamda tahliliy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Keyingi yillarda O'zbekiston ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ayniqsa, "Yangi O'zbekiston – yangi ta'lim" tamoyili asosida tarix fanini o'qitish tizimiga innovatsion pedagogik texnologiyalar va ilg'or metodlarni tatbiq etish masalasini dolzarb yo'nalishlardan biriga aylantirdi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi tarix fanini o'qitish jarayonining metodik jihatlarini ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan o'rganish, ta'lim samaradorligini oshiruvchi zamonaviy pedagogik yondashuvlarni belgilash hamda amaliy faoliyat uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

XXI asrning ikkinchi choragiga kelib sun'iy intellekt texnologiyalari inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib bordi. Ta'lim tizimi ham bu jarayondan chetda qolmadi. Ayniqsa, generativ sun'iy intellektning paydo bo'lishi o'qitish metodikalarini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Endilikda sun'iy intellekt nafaqat axborot qidirish vositasi, balki ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga ham aylanmoqda. Tarix ta'limi o'ziga

xos fan sifatida o'tmish voqealarini o'rganish, tarixiy tafakkurni shakllantirish va tarixiy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq tarix fanini o'qitishda ma'lumotlarning ko'pligi, tarixiy manbalarni tahlil qilishning murakkabligi hamda o'quvchilarning tarixga bo'lgan qiziqishini doimiy ravishda saqlab turish bilan bog'liq muammolar mavjud. Mazkur muammolarni hal etishda sun'iy intellekt texnologiyalari muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda ChatGPT, Gemini, Claude va Copilot kabi sun'iy intellekt platformalari tarixiy ma'lumotlarni izlash, tahlil qilish, umumlashtirish va taqdim etish imkoniyatlariga ega. Shu sababli tarix ta'limida sun'iy intellektdan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimiga joriy etilishi so'nggi yillarda jahon pedagogikasining eng dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xorijiy olimlar tomonidan sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi imkoniyatlari, uning o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga ta'siri, individual ta'limni tashkil etishdagi roli hamda ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati bo'yicha keng ko'lami ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Jumladan, A. Holmes, W. B. Luckin, N. Selwyn va M. Zawacki-Richter kabi tadqiqotchilar sun'iy intellektning ta'lim tizimidagi nazariy va amaliy jihatlarini o'rganganlar. Ularning tadqiqotlarida sun'iy intellekt asosidagi tizimlarning o'quv jarayonini individuallashtirish, ta'lim oluvchilarning ehtiyojlarini aniqlash, bilimlarni baholash va o'quv faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotchilar sun'iy intellektni an'anaviy pedagogik faoliyatni almashtiruvchi vosita sifatida emas, balki o'qituvchining metodik imkoniyatlarini kengaytiruvchi innovatsion texnologiya sifatida baholaydilar.

Ayniqsa, generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ta'lim jarayonida yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. ChatGPT, Gemini va Claude kabi sun'iy intellekt platformalari yordamida o'quv materiallarini yaratish, murakkab tushunchalarni tushuntirish, individual topshiriqlar ishlab chiqish, matnlarni tahlil qilish va mustaqil ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari kengaydi. Bu esa ta'lim metodikasida sun'iy intellektdan foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi.

Tarix ta'limi metodikasi yo'nalishida esa tarixiy tafakkurni shakllantirish, tarixiy savodxonlikni rivojlantirish va tarixiy manbalar bilan ishlash masalalari xorijiy olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, S. Wineburg o'z tadqiqotlarida tarixiy tafakkurning o'ziga xos xususiyatlarini hamda tarixiy manbalarni tahlil qilish jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalalarini yoritgan. Uning ilmiy qarashlarida tarixni oddiy faktlar yig'indisi sifatida emas, balki dalillar asosida tahlil qilinadigan murakkab tafakkur jarayoni sifatida o'rganish g'oyasi ilgari suriladi.

P. Seixas va T. Morton tomonidan ishlab chiqilgan tarixiy tafakkur konsepsiyasida tarixiy ahamiyat, dalillardan foydalanish, sabab va oqibatlarni aniqlash, tarixiy nuqtayi nazarni tushunish hamda axloqiy o'lchov kabi yo'nalishlar asosiy komponentlar sifatida ko'rsatiladi. Mazkur yondashuvlar zamonaviy tarix ta'limining metodologik asoslarini tashkil etib, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

D. Lévesque tadqiqotlarida esa tarixiy savodxonlikni shakllantirish, o'quvchilarning tarixiy hodisalarga nisbatan mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Uning fikricha, tarix ta'limining asosiy maqsadi faqat tarixiy ma'lumotlarni yodlash emas, balki tarixiy jarayonlarni tushunish, turli manbalarni qiyosiy tahlil qilish va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

O'zbekiston pedagogikasi va tarix ta'limi metodikasi sohasida ham tarix fanini o'qitishni takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalari bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan tarix ta'limida interfaol metodlardan foydalanish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, elektron ta'lim resurslarini yaratish hamda o'quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, raqamli pedagogika doirasida elektron darsliklar, multimedia vositalari, virtual ekskursiyalar va onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish bo'yicha muayyan tajribalar shakllangan.

Ushbu tadqiqotlar tarix fanini o'qitish jarayonini zamonaviylashtirishga xizmat qilgan bo'lsa-da, aynan sun'iy intellekt texnologiyalarining tarix ta'limidagi didaktik imkoniyatlari, ularni dars jarayoniga integratsiya qilish metodikasi hamda pedagogik samaradorligi masalalari yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Shu jihatdan, sun'iy intellekt texnologiyalarining tarix fanini o'qitish jarayonidagi o'rni, uning tarixiy tafakkurni rivojlantirish, tarixiy manbalarni tahlil qilish, mustaqil ta'limni tashkil etish va o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishdagi imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yo'nalishi aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, unda sun'iy intellekt texnologiyalaridan tarix ta'limida samarali foydalanishning metodik asoslarini ishlab chiqish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini tarix ta'limini modernizatsiya qilish, raqamli pedagogika imkoniyatlaridan foydalanish hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash masalalariga oid zamonaviy ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining tarix fanini o'qitishdagi didaktik imkoniyatlarini aniqlash, ularning ta'lim samaradorligiga ta'sirini baholash va ulardan foydalanishning metodik asoslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan metodologik yondashuvlardan foydalanildi.

Tadqiqotda, avvalo, tarixiylik tamoyili asosida sun'iy intellekt texnologiyalarining shakllanishi va ta'lim tizimiga kirib kelish jarayoni o'rganildi. Mazkur tamoyil orqali raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasidagi rivojlanish bosqichlari, an'anaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan zamonaviy sun'iy intellekt tizimlarigacha bo'lgan evolyutsion jarayon tahlil qilindi. Shuningdek, tarix ta'limining an'anaviy metodlari va zamonaviy raqamli vositalar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlashtirildi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida sun'iy intellekt texnologiyalarining tarix ta'limidagi o'rni yaxlit pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bunda ta'limning maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va kutilayotgan natijalari o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi. Sun'iy intellektning faqat texnik vosita emas, balki o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini takomillashtiruvchi kompleks pedagogik resurs sifatidagi imkoniyatlari ochib berildi.

Tadqiqotning muhim metodlaridan biri sifatida qiyosiy tahlil metodi qo'llanildi. Ushbu metod orqali an'anaviy tarix o'qitish metodlari bilan sun'iy intellekt asosidagi zamonaviy ta'lim vositalarining imkoniyatlari qiyoslandi. Xususan, tarixiy ma'lumotlarni o'zlashtirish, manbalar bilan ishlash, o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish va baholash jarayonlarida sun'iy intellekt vositalarining afzalliklari hamda cheklovlari tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida ilmiy manbalarni tahlil qilish metodi asosiy metodlardan biri sifatida qo'llanildi. Xorijiy va mahalliy olimlarning sun'iy intellekt, raqamli pedagogika, tarix ta'limi metodikasi hamda kompetensiyaviy yondashuvga oid ilmiy ishlari o'rganildi. Jumladan, sun'iy intellektning ta'limdagi o'rni, o'quv jarayonini individuallashtirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va mustaqil ta'limni tashkil etish masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi.

Tadqiqotda pedagogik kuzatish metodi ham qo'llanilib, tarix darslari jarayonida zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish tajribasi o'rganildi. Ushbu metod orqali sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning darsga qiziqishi, bilimlarni o'zlashtirish darajasi, mustaqil fikrlash qobiliyati va tadqiqotchilik faoliyatiga ta'siri tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv metodologik asos sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv asosida tarix ta'limida sun'iy intellektidan foydalanish natijasida shakllanadigan kompetensiyalar, jumladan, axborot bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, tarixiy manbalarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va raqamli savodxonlik ko'nikmalari o'rganildi. Tadqiqot davomida umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari yordamida olingan ilmiy ma'lumotlar umumlashtirildi, sun'iy intellekt texnologiyalaridan tarix ta'limida foydalanishning asosiy yo'nalishlari aniqlandi hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda kontent-tahlil metodi yordamida sun'iy intellekt va ta'lim masalalariga oid ilmiy maqolalar, konsepsiyalar, metodik ishlanmalar hamda xalqaro tajribalar o'rganildi. Ushbu metod orqali mavjud ilmiy qarashlarning umumiy va farqli jihatlari aniqlanib, tarix ta'limida sun'iy intellektidan foydalanishning nazariy asoslari shakllantirildi. Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, ilmiy umumlashtirish, kontent-tahlil va kompetensiyaviy yondashuv kabi metodlar majmuasiga asoslanadi. Mazkur metodlarning o'zaro uyg'unligi sun'iy intellekt texnologiyalarining tarix fanidagi didaktik imkoniyatlarini chuqur o'rganish, ularni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi pedagogik jarayonning mazmuni, shakli va metodlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, tarix fanini o'qitishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish nafaqat axborot olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki o'quvchilarning tarixiy tafakkurini shakllantirish, mustaqil izlanish faoliyatini tashkil etish va murakkab tarixiy jarayonlarni chuqur anglash imkonini ham beradi. Tarix fani o'z mohiyatiga ko'ra katta hajmdagi ma'lumotlar, turli davrlarga oid manbalar, tarixiy shaxslar faoliyati va murakkab sabab-oqibat munosabatlarini o'rganishni talab qiladi.

An'anaviy ta'lim jarayonida o'quvchilar ko'pincha tarixiy sanalar, voqealar va faktlarni o'zlashtirishga yo'naltiriladi. Biroq zamonaviy tarix ta'limining asosiy vazifasi faqat ma'lumot berish emas, balki o'quvchilarda tarixiy hodisalarni tahlil qilish, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish va asoslangan xulosalar chiqarish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, sun'iy intellekt texnologiyalari tarix ta'limining mazmunini boyituvchi muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Sun'iy intellektning eng muhim didaktik imkoniyatlaridan biri individuallashtirilgan ta'limni tashkil etish imkoniyatidir. An'anaviy dars jarayonida barcha o'quv-

chilarga bir xil mazmundagi topshiriqlar beriladi, natijada ayrim o'quvchilar uchun material murakkab, ayrimlari uchun esa haddan tashqari sodda bo'lishi mumkin. Sun'iy intellekt vositalari esa o'quvchining bilim darajasi, qiziqishi va ehtiyojlaridan kelib chiqib individual topshiriqlar, tushuntirishlar va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Masalan, tarix fanini o'rganishda ayrim o'quvchilarga asosiy tushunchalarni izohlash, boshqalariga esa murakkab tarixiy manbalarni tahlil qilish bo'yicha topshiriqlar tavsiya etilishi mumkin.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchi tarixiy mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumot izlash, tarixiy shaxslar faoliyatini tahlil qilish, turli manbalarni taqqoslash va o'z xulosalarini shakllantirish jarayonida sun'iy intellektdan yordamchi vosita sifatida foydalanishi mumkin. Bunda o'quvchining tayyor ma'lumotni qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi va baholovchi subyektga aylanishi muhimdir. Tarix ta'limida sun'iy intellektning yana bir muhim jihati tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatidir. Tarixiy jarayonlar ko'pincha turli ilmiy qarashlar va talqinlarga ega bo'ladi.

Sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarga biror tarixiy voqea bo'yicha turli nuqtayi nazarlarni taqdim etish, ularning o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash hamda dalillar asosida mustaqil xulosa chiqarish vazifalarini berish mumkin. Masalan, muayyan siyosiy jarayon yoki tarixiy islohotning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish orqali o'quvchilarning analitik fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish uchun ham keng imkoniyat yaratadi. Tarix fanida tadqiqot olib borish manbalarni izlash, ularni tahlil qilish, ma'lumotlarni tizimlashtirish va ilmiy xulosa chiqarishni talab qiladi. Sun'iy intellekt vositalari ushbu jarayonlarning ayrim bosqichlarida yordam berishi mumkin. Masalan, tarixiy hujjatlarning mazmunini tahlil qilish, murakkab ilmiy matnlarni tushunarli shaklga keltirish yoki muayyan mavzu bo'yicha tadqiqot savollarini shakllantirishda undan foydalanish mumkin.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda o'qituvchining roli yanada muhimlashadi. Chunki sun'iy intellekt tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar har doim ham mutlaq aniq bo'lavermaydi. Tarixiy ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshirish, manbalarni tanqidiy baholash va ilmiy yondashuvni ta'minlash o'qituvchining metodik rahbarligini talab qiladi. Shu sababli sun'iy intellekt tarix o'qituvchisining o'rnini egallovchi vosita emas, balki uning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiruvchi yordamchi texnologiya sifatida qaralishi lozim. Muhokama jarayonida yana bir muhim masala – akademik halollik va raqamli madaniyatni shakllantirish masalasidir. Sun'iy intellekt vositalaridan noto'g'ri foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, tayyor javoblarga qaramlikni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli tarix ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish metodikasi o'quvchilarni faqat texnologiyadan foydalanishga emas, balki undan ongli, mas'uliyatli va ilmiy maqsadlarda foydalanishga o'rgatishi zarur.

Kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan qaraganda, sun'iy intellekt texnologiyalari tarix ta'limida axborot bilan ishlash, raqamli savodxonlik, kommunikativ kompetensiya, tanqidiy fikrlash va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan biri bo'lgan faol, mustaqil fikrlovchi va raqamli muhitda samarali faoliyat yurita oladigan shaxsni shakllantirish imkonini beradi. Umuman olganda, sun'iy intellekt texnologiyalarining tarix ta'limidagi imkoniyatlari keng bo'lib, ular o'quv jarayonining barcha bosqichlarida – darsni rejalashtirish, o'quv materiallarini tayyorlash, bilimlarni mustahkamlash, baholash va mustaqil ta'limni tashkil etishda samarali qo'llanilishi mumkin. Biroq uning pedagogik samaradorligi texnologiyaning o'ziga emas, balki undan qanday metodik asosda foydalanilishiga bog'liq. Shuning uchun tarix ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish aniq metodik tamoyillar, ilmiy yondashuv va pedagogik nazorat asosida amalga oshirilishi lozim.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy tarix ta'limini rivojlantirish va uning metodik imkoniyatlarini kengaytirishda muhim innovatsion vositalardan biri hisoblanadi. Sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga kirib kelishi tarix fanini o'qitishning an'anaviy shakllarini takomillashtirish, o'quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish hamda tarixiy tafakkurni shakllantirish uchun yangi pedagogik imkoniyatlarni yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Russell, S., Norvig, P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th Edition. Hoboken: Pearson, 2021. 1152 p.
2. Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. 226 p.
3. Luckin, R. Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. London: UCL IOE Press, 2018. 192 p.
4. Selwyn, N. Education and Technology: Key Issues and Debates. 3rd Edition. London: Bloomsbury Academic, 2022. 256 p.



5. Zawacki-Richter, O., Marín, V.I., Bond, M., Gouverneur, F. Systematic Review of Research on Artificial Intelligence Applications in Higher Education // *International Journal of Educational Technology in Higher Education*. 2019. Vol. 16. Article 39.
6. Chen, L., Chen, P., Lin, Z. Artificial Intelligence in Education: A Review // *IEEE Access*. 2020. Vol. 8. P. 75264-75278.
7. UNESCO. Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers. Paris: UNESCO Publishing, 2021. 50 p.
8. Holmes, W., Tuomi, I. State of the Art and Practice in AI in Education // *European Journal of Education*. 2022. Vol. 57. Issue 4. P. 542-570.
9. Wineburg, S. Historical Thinking and Other Unnatural Acts: Charting the Future of Teaching the Past. Philadelphia: Temple University Press, 2001. 255 p.
10. Seixas, P., Morton, T. The Big Six Historical Thinking Concepts. Toronto: Nelson Education, 2013. 216 p.
11. Lévesque, S. Thinking Historically: Educating Students for the Twenty-First Century. Toronto: University of Toronto Press, 2008. 200 p.
12. Lee, P., Ashby, R. Empathy, Perspective Taking and Rational Understanding in History. London: Routledge, 2001. 240 p.
13. Mayer, R.E. Multimedia Learning. 3rd Edition. Cambridge: Cambridge University Press, 2020. 384 p.
14. Anderson, T. The Theory and Practice of Online Learning. 2nd Edition. Edmonton: AU Press, 2008. 472 p.
15. Siemens, G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*. 2005. Vol. 2. No. 1. P. 3-10.
16. Выготский Л.С. Психология развития человека. Москва: Смысл; Эксмо, 2005. 1136 с.
17. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. Москва: Смысл, 2005. 352 с.
18. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. Санкт-Петербург: Питер, 2019. 713 с.
19. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. Москва: Педагогика, 1989. 192 с.
20. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. Москва: Народное образование, 1998. 256 с.
21. Tolipov, O'.Q., Usmonboyeva, M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent: Fan, 2006. 261 b.
22. G'oziyev, E.G'. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'qituvchi, 2010. 544 b.
23. Nishonova, Z.T., Alimova, G.K. Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018. 408 b.
24. Safarov, O. Tarix o'qitish metodikasi. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2015. 240 b.
25. Saidahmedov, N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Moliya, 2003. 172 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.